

O'ZBEKISTONNING CHEKKA HUDUDLARIDAGI NOGIRONLIGI BO'LGAN SHAXSLAR BILAN IJTIMOYIY ISH OLIB BORISH

Ilmiy rahbar: **Ishmuradov Bunyod Farxodovich**

Samarqand davlat universiteti Kattaqog'on filiali

Temirova Xurshida Turobovna

Samarqand davlat universiteti Kattaqog'on filiali

Ijtimoiy ish yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Chekka qishloq joylarida nogironligi bo'lgan shaxslar bilan ijtimoiy ish olib borish o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, infratuzilmaning yetishmasligi, transport, ta'lim va ish bilan ta'minlashda cheklovlar, tibbiy xizmatlarning past darajasi muammolarini o'z ichiga oladi. Ushbu maqolada nogironlar uchun qishloq joylarida mavjud imkoniyatlar, ularning ijtimoiy integratsiyasini ta'minlash yo'llari, davlat va jamoat tashkilotlarining roli yoritiladi.

Kalit so'zlar: nogironlar, qishloq joylarida ijtimoiy ish, infratuzilma, ta'lim, ish bilan ta'minlash, tibbiy xizmatlar, davlat dasturlari, rehabilitatsiya.

Annotation: social work with persons with disabilities in rural areas has its own characteristics and includes problems of lack of infrastructure, restrictions on transportation, education and employment, low level of medical services. This article will cover the opportunities available to people with disabilities in rural areas, ways to ensure their social integration, the role of state and public organizations.

Keywords: people with disabilities, social work in rural areas, infrastructure, education, employment, medical services, government programs, rehabilitation.

Аннотация: социальная работа с инвалидами в сельской местности имеет свои особенности и включает в себя проблемы отсутствия инфраструктуры, ограничения на транспорт, образование и трудоустройство, низкий уровень медицинского обслуживания. В этой статье будут рассмотрены возможности, доступные людям с ограниченными возможностями в сельской местности, способы обеспечения их социальной интеграции, роль государства и общественных организаций.

Ключевые слова: люди с ограниченными возможностями, социальная работа в сельской местности, инфраструктура, образование, трудоустройство, медицинские услуги, государственные программы, реабилитация.

KIRISH

Nogironligi bo'lgan shaxslar jamiyatning ajralmas qismi bo'lib, ularning huquq va manfaatlarini ta'minlash ijtimoiy hayotning muhim yo'nalishlaridan biridir. Ayniqsa, qishloq joylarida yashovchi nogironligi bo'lgan shaxslar ijtimoiy muhit va infratuzilma imkoniyatlarining cheklanganligi sababli qo'shimcha qiyinchiliklarga duch keladi. Ularning ijtimoiy integratsiyasi, teng imkoniyatlardan foydalanishi va qadr-qimmatini saqlash bo'yicha ish olib borish bugungi kunning dolzarb vazifasidir.

Mazkur maqola qishloq hududlarida nogironligi bo'lgan shaxslar bilan ijtimoiy ish olib borishda duch kelinadigan o'ziga xos xususiyatlar va muammolarni o'rganishga qaratilgan. Ushbu masala nafaqat insonparvarlik va tenglik tamoyillariga asoslanadi, balki

jamiyatning barqaror rivojlanishiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun nogironligi bo'lgan shaxslarning ehtiyojlarini qondirish, ularga qo'llab-quvvatlov ko'rsatish va ijtimoiy inklyuzivlikni ta'minlashning samarali usullarini izlash muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada nogironligi bo'lgan shaxslar bilan ishlashdagi mavjud yondashuvlar, qishloq joylaridagi ijtimoiy va iqtisodiy sharoitlarning ta'siri, shuningdek, bu boradagi muammolar va ularni hal qilish yo'llari tahlil qilinadi. Shu orqali nogironligi bo'lgan shaxslarning jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyasini ta'minlash uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqish maqsad qilingan.

ASOSIY QISM

Hozirgi kunda nogironligi bo'lgan shaxslar bilan ijtimoiy ish olib borish masalasi dolzarb mavzulardan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi aholisining katta qismi qishloq joylarida yashaydi, va bu hududlarda yashovchi nogironlar soni ham ahamiyatli o'rin tutadi. Qishloq joylarida ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlash va ularning jamiyatda faol ishtirok etishini ta'minlash ko'p qirrali masalalardan biri hisoblanadi. Bunday hududlarda ijtimoiy ish olib borishning o'ziga xos xususiyatlari shahar joylaridagi nogironlarga ko'rsatiladigan xizmatlardan bir qator jihatlari bilan farq qiladi. Shu sababli, qishloq joylarida nogironlar bilan ishlashda an'anaviy yondashuvlardan tashqari, hududning geografik, iqtisodiy va madaniy xususiyatlarini ham inobatga olish zarurdir. Nogironligi bo'lgan shaxslar bilan ishlashda ijtimoiy ishning asosiy maqsadi ularning hayot sifatini oshirish, huquqlarini himoya qilish va jamiyatga to'laqonli integratsiyalashuvini ta'minlashdir. Lekin, qishloq joylarida bu jarayonlar shahar joylariga qaraganda ancha murakkab kechadi. Buning sababi birinchi navbatda qishloq joylarida infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi, ijtimoiy xizmatlarning cheklanganligi va nogironlarga moslashtirilgan imkoniyatlarning yetishmasligidir. Qishloq joylarida ko'plab nogironligi bo'lgan shaxslar o'z imkoniyatlaridan foydalana olmaslik, ta'lim olishda cheklanishlar va ish topishda qiyinchiliklar bilan duch kelishadi. Shu sababli, ijtimoiy ishchilar uchun bu muammolarni bartaraf etish va ularning ehtiyojlariga mos xizmatlar yaratish muhim vazifalardan biridir. Bundan tashqari qishloq joylarida ijtimoiy ishning o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri bu ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatdir. Ko'plab qishloq hududlarida yashash sharoitlari shaharga nisbatan ancha og'ir, moddiy yetishmovchilik, ish o'rinlarining cheklanganligi va transport tizimining zaifligi kabi omillar nogironligi bo'lgan shaxslarning hayotini yanada murakkablashtiradi. Shuningdek, qishloq joylarida axborot va kommunikatsiya vositalarining cheklanganligi sababli nogironlik to'g'risida yetarlicha ma'lumotga ega bo'lmaslik, ular uchun mavjud imkoniyatlardan xabardor bo'lmaslik hollari ham keng tarqalgan. Bu holat, nogironligi bo'lgan shaxslarning jamiyatdagi o'rnini topishlariga to'sqinlik qiladi va ularning ijtimoiy izolyatsiyasini kuchaytiradi. Yana bir muhim masalalardan biri qishloq joylarida nogironlikka nisbatan madaniy va ijtimoiy yondashuvlar. Ayrim hududlarda nogironligi bo'lgan shaxslar bilan bog'liq stereotiplar va noto'g'ri qarashlar mavjud bo'lib, ular jamiyat tomonidan to'liq qabul qilinmasligi yoki kamsitilishi mumkin. Bunday yondashuvlar nogironlar bilan ijtimoiy ish olib borishda jiddiy to'siq hisoblanadi. Shu sababli, qishloq joylarida nogironlikka nisbatan ijtimoiy madaniyatni o'zgartirish, odamlar orasida tushunishni oshirish va jamiyatning har bir a'zosi, jumladan, nogironligi bo'lgan shaxslar ham teng huquqli ekanligini targ'ib qilish katta ahamiyatga ega. Bu borada yana bir qiyinchilik – bu ijtimoiy ishchilar va xizmat ko'rsatuvchi mutaxassislar yetishmovchiligi hisoblanadi. Qishloq joylarida ijtimoiy xizmat ko'rsatish infratuzilmasi kam rivojlangan bo'lib, ijtimoiy ishchilar va nogironlarga xizmat ko'rsatuvchi maxsus kadrlar ko'pincha yetarli emas. Bu esa nogironlarning o'z vaqtida zarur xizmatlarni olish imkoniyatlarini cheklaydi. Shuningdek, mavjud mutaxassislarning qishloq hududlariga borishdan bosh tortishi yoki sharoitning qiyinligi sababli u yerda uzoq muddat ishlashni istamasligi muammolarni yanada murakkablashtiradi.

Qishloq joylarida nogironligi bo'lgan shaxslar bilan ijtimoiy ish olib borishning asosiy qismi qator muammolar va qiyinchiliklarni hal etishga yo'naltirilgan bo'lib, ularning hayot sifatini yaxshilash, huquq va imkoniyatlarini ta'minlashga qaratilgan. Ijtimoiy ishchilar bu jarayonda turli strategiyalar va amaliyotlardan foydalanadilar. Qishloq joylaridagi ijtimoiy ish jarayonlari ko'pincha shahar

joylaridagidan farqli xususiyatlarga ega. Shu bois nogironligi bo'lgan shaxslar bilan ijtimoiy ish olib borishda turli yondashuvlar qo'llanilishi zarur. Quyida qishloq joylarida nogironlar bilan ishlashning asosiy qirralari va mavjud muammolar tahlil qilinadi.

Infratuzilma va transport muammolari. Nogironligi bo'lgan shaxslar uchun qishloq joylarida infratuzilma va transport tizimi yetarlicha rivojlanmaganligi muhim muammolardan biri hisoblanadi. Ular shaharlarda jamoat transportidan foydalanish imkoniyatlariga ega bo'lsada, qishloq joylarida bunday imkoniyat cheklangan. Odatda qishloqlarda jamoat transporti kam bo'lib, nogironlar uchun moslashtirilgan maxsus transport vositalari mavjud emas. Bu esa ularning maktab, ish joyi yoki davolash muassasalariga borishiga jiddiy to'sqinlik qiladi. Infratuzilma muammolari faqat transport bilan cheklanmaydi. Qishloq joylarida ko'plab ijtimoiy ob'ektlar, jumladan shifoxonalar, maktablar va boshqa muhim infratuzilmalar nogironlar uchun moslashtirilmagan. Binolarga kirish yo'llari nogironlar uchun qulay bo'lmagani bois, ular ko'pincha mustaqil ravishda zarur xizmatlardan foydalanish imkoniyatidan mahrum bo'ladilar. Shu sababli, qishloq joylarida nogironlarga xizmat ko'rsatuvchi muassasalarni moslashtirish uchun qulay sharoitlar yaratish muhim hisoblanadi.

Ta'lim va ish bilan ta'minlash imkoniyatlari. Nogironligi bo'lgan shaxslar uchun qishloq joylarida ta'lim olish va ish topish imkoniyatlari cheklangan. Odatda qishloq maktablari va ta'lim muassasalarida maxsus ta'lim vositalari va pedagoglar yetishmasligi kuzatiladi. Bu esa nogiron o'quvchilarni to'liq bilim olishlariga to'sqinlik qiladi. Ta'lim olish jarayonida uchraydigan jismoniy va texnik to'siqlar, shuningdek, psixologik qiyinchiliklar sababli ko'plab nogironligi bo'lgan bolalar maktabdan tashqarida qoladilar. Shuningdek, maxsus ta'lim dasturlari qishloq joylarida ko'p hollarda mavjud emas, bu esa nogironligi bo'lgan o'quvchilarning ta'lim olish huquqini cheklaydi. Ularning ta'lim olish huquqini ta'minlash uchun qishloq maktablari va maktabgacha ta'lim muassasalarida maxsus infratuzilma yaratish zarur. Bunda o'qituvchilarni maxsus pedagogika sohasida o'qitish, ta'lim vositalarini nogironlarning ehtiyojlariga moslashtirish katta ahamiyatga ega. Ish bilan ta'minlash muammosi ham qishloq joylaridagi dolzarb masalalardan biridir. Ko'p qishloq joylarida nogironlar uchun moslashtirilgan ish o'rinlari yetarli emas. Ko'pincha, qishloq joylarida ish topishning asosiy manbai qishloq xo'jaligi hisoblanadi, ammo nogironligi bo'lgan shaxslar bu sohada to'laqonli ishtirok eta olmaydilar. Shu sababli, nogironlar uchun mos ish o'rinlarini yaratish va ularni kasbiy tayyorlashga yo'naltirilgan dasturlarni joriy etish muhim vazifalardan biridir.

Tibbiy xizmat va rehabilitatsiya muammolari. Qishloq joylarida tibbiy xizmatlar va rehabilitatsiya jarayonlari shaharlarga qaraganda ancha past darajada. Nogironlar uchun zarur bo'lgan davolash, rehabilitatsiya va profilaktika tadbirlari qishloq joylarida cheklangan yoki umuman mavjud emas. Qishloq tibbiy muassasalarida nogironlar uchun maxsus xizmatlar, uskunalar va malakali kadrlar yetishmaydi. Bu esa nogironligi bo'lgan shaxslarning sog'lig'ini saqlash va hayot sifatini yaxshilash imkoniyatlarini kamaytiradi. Bundan tashqari, qishloq joylarida tibbiy xizmatlardan foydalanish uchun nogironlarning shaharga borishlari kerak bo'ladi, bu esa transport va moliyaviy resurslarning yetishmasligi sababli qo'shimcha qiyinchiliklar keltirib chiqaradi. Tibbiy xizmatlarni yetkazib berish uchun qishloq hududlarida mobil tibbiy brigadalarni tashkil etish, shuningdek, nogironlar uchun moslashtirilgan rehabilitatsiya markazlari ochish muhimdir.

Ijtimoiy himoya va davlat dasturlari. Nogironligi bo'lgan shaxslar uchun ijtimoiy himoya tizimini rivojlantirish va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan dasturlarni kengaytirish qishloq joylarida ayniqsa muhimdir. Qishloq joylarida yashovchi nogironlar uchun mavjud ijtimoiy xizmatlar, nafaqalar va imtiyozlar ko'pincha yetarli emas yoki ularning hajmi shahardagi nogironlar uchun ko'rsatiladigan xizmatlarga nisbatan ancha past bo'ladi. Shu sababli, davlatning nogironlarga ko'rsatiladigan xizmatlarni qishloq joylarida kengaytirishi va ularga yordam dasturlarini yaratishi zarur. Davlat tomonidan nogironlar uchun ijtimoiy himoya tizimining samarali ishlashi uchun maxsus dasturlar va loyihalarni ishlab chiqish va ularni amalga oshirish zarur. Bu jarayonda jamoat tashkilotlari va davlat

idoralari hamkorlikda ish olib borishlari, qishloq joylarida yashovchi nogironlar bilan yaqindan ishlashlari muhimdir.

Xulosa. Qishloq joylarida nogironligi bo'lgan shaxslar bilan ijtimoiy ish olib borishning murakkabligi va ko'p qirraliligi, turli sohalarda yechim talab qiladigan muammolarni o'z ichiga oladi. Nogironligi bo'lgan shaxslar bilan ishlashda aniq yondashuvlar va integratsiyalashgan xizmat ko'rsatish tizimi qishloq joylarida ularning hayot sifatini yaxshilashga katta yordam beradi. Ijtimoiy munosabatlarda esa mavjud bo'lgan madaniy to'siqlarni yengish uchun jamiyatning barcha qatlamlarini nogironlik haqida to'g'ri axborot bilan ta'minlash, stereotiplarni bartaraf etishga yo'naltirilgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazish zarur. Ko'pincha nogironning asosiy kasalligining oqibati bo'lgan hissiy muammolar atrofdagilarning nomaqbul ta'sirlari, qiziqishlari, qo'rquvlari, masxara qilishlari, noqulay ahvolga tushishlari sababli yanada ortib borishi mumkin. Nogironlar jamiyatning teng huquqli a'zolari ekanligi to'g'risida keng jamoatchilikni xabardor qilish orqali ularga nisbatan ijtimoiy munosabatni yaxshilash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Marhabo, S. (2024). MAKTABDA IJTIMOIIY ISH VA IJTIMOIIY ISH XODIMI ROLI. PEDAGOG, 7(2), 180-183.
2. Kenjaboyev, E. D., & Toshniyozov, I. J. (2023). IJTIMOIIY ISH XODIMINING MULOQOT MALAKASI. IJTIMOIIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 3(12), 12-16.
3. Subxonova A. M. (2024). IJTIMOIIY ISH AMALIYOTIDA JAMOA BILAN ISHLASH KONIKMALARI.
4. Yuldasheva, G., & Teshaboyeva, N. (2024). IJTIMOIIY ISH SOHASIDA AXBOROT–KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHk. Gospodarka i Innowacje., 47, 304-307.
5. Toshniyozov, I. J. (2023). IJTIMOIIY ISH XODIMINING MIJOZLAR BILAN MULOQOT MALAKA (KOMPETENSIYA) SI. Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari, 1(1), 129-136.
6. M.S. ABBASOVA (2024) NOGIRONLIGI BO'LGAN SHAXSLAR BILAN IJTIMOIIY ISH AMALIYOTI. Uslubiy qo'llanma